

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ORIENTAL UNIVERSITETI

ERKINOVA NIGORA ESANOVNA

**ESHQOBIL SHUKUR SHE‘RLARINING
LINGVOPOETIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Erkinova Nigora Esanovna

Eshqobil Shukur she’rlarining lingvopoetik tadqiqi 3

Эркинова Нигора Эсановна

Лингвопоэтическое исследование стихов Эшкабила Шукура 29

Erkinova Nigora Esanovna

Eshqobil Shukur's lingvopoetic study of poems 59

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ORIENTAL UNIVERSITETI

ERKINOVA NIGORA ESANOVNA

**ESHQOBIL SHUKUR SHE‘RLARINING
LINGVOPOETIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3117 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oriental universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudayberganova Durdona Sidikovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Yo'ldoshev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Andaniyazova Dilrabo Ro'ziqulovna
filologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 17 may - soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahar, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "1" may kuni tarqatildi.
(2024- yil "1" may dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

G.M. Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, f.f.d., dotsent

Y.R. Odilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH

(filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida o'tgan asrning oxirlaridan boshlab til tadqiqiga yondashuvlar tubdan o'zgarib, til tizimini kontekst, nutq vaziyati, til muhiti, madaniyat, etnos, ijtimoiy vaziyat kabi tashqi omillar bilan bog'liqlikda o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijasida tilda inson omili muammosini o'rganuvchi antropotsentrik tilshunoslikning qator yo'nalishlari shakllanib, mustaqil rivojlana boshladi. Ayniqsa, fanlar va fan sohalari integratsiyasi kuchayib borishi natijasida lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvopoetika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi qator yo'nalishlar yuzaga kelib, tilshunoslikning tahlil obyektlari yanada kengaydi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarning safi ortdi.

Dunyo tilshunosligida mana shunday fan sohalari integratsiyasi natijasida, xususan, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarining kesishmasida yuzaga kelgan sohalardan biri lingvopoetika bo'lib, til birliklarining yozuvchi yoki shoir kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda badiiy-estetik vazifa uchun xizmat qilishidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu yo'nalishda bugunga qadar bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, tilshunosligimizda hali yechimini topmagan muammolar ko'zga tashlanadi. Jumladan, taniqli o'zbek shoiri Eshqobil Shukurning she'rlarida ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan til birliklarini aniqlash, estetik vazifa ortida turgan tilga xos qonuniyatlarni ochib berish va shu orqali shoirning tildan foydalanish mahoratini yoritish amaliy yechimini kutayotgan dolzarb muammo sanaladi. Bu muammoning tadqiqi til birliklarining ijodkor shaxs assotsiativ tafakkuri, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda badiiy aks ettirishida o'ziga xos jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda mustaqillikdan so'ng ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan, o'zbek tilini ilmiy asosda chuqur o'rganish masalasi bo'yicha hukumatimiz tomonidan chiqarilgan farmon, qarorlar o'zbek tilshunosligida til tadqiqiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ushbu farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida tilshunosligimizda tilni tadqiq etishning zamonaviy usullari, tamoyillari yaratildi. "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"¹ ekan, milliy tilimizni dunyoda ommalashgan zamonaviy tadqiq tamoyillari asosida chuqur o'rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bugungi kunda xalqimizning ma'naviy salohiyatining yuksalishiga xizmat qilgan o'zbek ijodkorlari asarlari leksikasini tadqiq etish davr taqozosiga aylanmoqda. Bu borada taniqli shoir Eshqobil Shukur lirikasi tili ham o'zbek tilining lingvopoetik xususiyatlarini namoyish etishi jihatdan jiddiy o'rganilishga loyiq. Shoir o'z ijodida o'zbek ma'naviyatini ona tilimiz vositasida yoritib kelmoqda. Ushbu holat tadqiqot mavzusining bugungi kun talablariga muvofiqligi va dolzarbligini asoslaydi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22-декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017 йил 23- декабрь. 258 (6952)-сон.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-con “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli mavjud me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga dissertatsiya ishimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida lingvopoetik aspektda qator ishlar amalga oshirilgan. Ushbu sohaning nazariy asoslari, tahlil tamoyillari V.V. Vinogradov, B.A. Larin, V.P. Grigoryev, N.M. Shanskiy, M.E. Konurbayev va boshqalarning ishlarida turli yo‘nalishlardagi matnlar misolida ishlab chiqildi².

XX asrning 80-yillaridan boshlab lingvostilistik yo‘nalishdagi ishlarning davomi sifatida o‘zbek tilshunosligida til birliklarining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari yuzaga keldi. O‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib tilshunos olim N. Mahmudovning maqolalarida lingvopoetikaning nazariy masalalari o‘rtaga tashlandi³. Keyinchalik I. Mirzayev, B. Yo‘ldoshev, Z. Shodiyeva, G. Muhammadjonova, M. Yaqubbekova, D. Shadiyeva, M. Yo‘ldoshev, G. Jumanazarova, Sh. Toshxo‘jayeva, S. Umirova, A. Hamidov, Z. Muqimovalarning tadqiqotlarida bir qator o‘zbek adiblarining asarlari, xalq qo‘shiqlari, dostonlarining lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi⁴.

² Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1969. – 256 с.; Shu muallif. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981. – 320 с.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – 288 с.; Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979. – 343 с.; Кожин И., и др. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985. – 221 с.; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Л.: Просвещение, 1990. – 425 с.; Конурбаев М.Э. Библия Короля Иакова в лингвопоэтическом освещении. – М.: Диалог – МГУ, 1998. – 69 с.; va boshqalar.

³ Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – №6. – Б. 48-51; Shu muallif. А.Қахҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – Б. 34-36.

⁴ Мирзаев И. К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.; Yo‘ldoshev B., Shodiyeva Z. “Ufq” trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari. – Samarqand: SamDU, 2006. – 62 b.; Muḥammadjonova G. 80-yillar oхири - 90- йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005. – 21 б.; Шадиева Д.Ш. Муḥаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 48 б.; Ўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Shu muallif. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 40 б.; Жуманазарова Г.У. “Ширин билан Шакар” дostonининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.

Shuningdek, badiiy matn tahlili masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham til birliklarining lingvopoetik xususiyatlari masalasiga munosabat bildirib o'tildi⁵.

Adabiyotshunoslikda o'zbek shoiri Eshqobil Shukurning adabiy ijodi, u yaratgan asarlar mazmuni haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda shoirning asarlari ayrim ishlarda lingvistik aspektda tadqiq etildi. Xususan, I. Ernazarovanning E. Shukur asarlarida so'z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili masalasiga oid tadqiqoti yuzaga keldi⁶.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Oriental universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitishning pedagogik imkoniyatlari va zamonaviy yondashuvi" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi taniqli o'zbek shoiri Eshqobil Shukur she'rlarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

she'riy matnni lingvopoetik aspektda tadqiq etish muammosining nazariy asoslari haqida ilmiy tushuncha berish va ularni sharhlash;

o'zbek shoiri Eshqobil Shukur asarlari misolida she'riy asarni lingvopoetik aspektda tadqiq etish masalasiga munosabat bildirish;

Eshqobil Shukur she'riy asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish, uning she'riy asarlarida ta'sirchanlikni ta'minlagan til birliklarini aniqlash hamda ularni funksional-stilistik hamda lingvopoetik aspektlarda tahlil qilish;

shoir she'rlarida til sathi birliklarining estetik ta'sirchanlikni ta'minlashdagi rolini ochib berish;

Eshqobil Shukur she'rlarining lingvopoetik tahlili orqali assotsiativ tafakkuri, dunyoni qay tarzda obrazli idrok etishini aniqlash, uning lingvistik qobiliyatiga baho berish, she'riy matnni hosil qilishda til vositalaridan foydalanish mahoratini yoritish.

Tadqiqotning obykti sifatida Eshqobil Shukurning "Hamal ayvoni (she'rlar va doston)" (2003), "Yashil qushlar" (1995), "Sochlari sumbul-sumbul" (1988), "Qaldirg'ochning ko'z yoshlari" asarlaridagi she'riy matnlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Eshqobil Shukur she'riy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari tashkil qiladi.

фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Shu muallif. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопoeтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 76 б.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопoeтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Фаргона, 2017. – 49; Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърляти мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 49 б.; Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопoeтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Қарши, 2020. – 45 б.; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопoeтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 51 б.

⁵ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – 140 б.; Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек бадий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент., 1991; Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – 52 б.

⁶ Эрнazarова И. Муаллиф сўз иждокорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2022. – 48 б.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, zidlash, funksional-stilistik, lingvopoetik, kontekstual-matniy tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda she'riy matnlarni lingvopoetik aspektda baholashda muallif – matn omili muhim o'rin tutishi Eshqobil Shukur asarlari misolida asoslanib, ijodkorning milliy tilimiz imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanganligi ochib berilgan;

Eshqobil Shukur she'rlarida ikkilantirilgan, takror qo'llangan, so'zdagi o'rni almashtirilgan unli va undosh tovushlar; ko'chma ma'noli so'zlar, laqablar, pretsedent nomlar; lingvopoetik ahamiyatli so'z birikmalari, gaplar, o'xshatishli qurilmalar, pretsedent birliklarning o'quvchiga estetik zavq berishda samarali qo'llanganligi dalillangan;

shoir she'riy asarlarida matn ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilgan leksik takror (so'zlarni she'rning har bir misrasida takror qo'llash) hamda sintaktik takror (so'z birikmalari va gaplarni misralarda takrorlash) ajratilib, ularning poetik matnda ifodalangan asosiy g'oya, mazmunini alohida ta'kidlash, ajratib ko'rsatish uchun xizmat qilganligi aniqlangan;

Eshqobil Shukur she'rlaridagi lingvopoetik ahamiyatli birliklar orqali shoirning poetik matn yaratishda badiiy assotsiativ tafakkuri va lingvistik qobiliyatini to'la namoyish qilganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida "Badiiy matnning lingvistik tahlili", "Badiiy matn stilistikasi", "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili" bo'yicha maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, ushbu fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratishda amaliy jihatdan foydalanish mumkinligi asoslangan;

badiiy matnda ijodkor assotsiativ tafakkuri, lisoniy qobiliyatining muhim o'rin tutishi Eshqobil Shukur she'riy matnlarining lingvopoetik tahlili orqali ochib berilgan;

badiiy matnni o'rganishda lingvopoetik tahlil metodining imkoniyatlari amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada ko'tarilgan muammoning to'g'ri qo'yilganligi, uning poetik matnlardan olingan daliliy misollar asosida yoritishda ushbu sohada dunyo tilshunosligida erishilgan yutuqlarga asoslanganligi, she'riy matnni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish asoslari Eshqobil Shukur she'rlari tahlili misolida aniq yechim topganligi, umumlashma xulosalar chiqarishda tilshunoslikka oid muhim ilmiy nazariy ma'lumotlarga tayanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalarning o'zbek lingvopoetikasi sohasida erishilgan yutuqlarni boyitishi, mukammallashtirishi, shuningdek, badiiy matnda estetiklikni hosil qilishda muallifning individual yondashuviga oid yangi ilmiy xulosalarni taqdim etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati poetik matnlarda til vositalarining lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini o'tashi bilan asoslanadi. Ulardan oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiya fakultetlarida

“She’riy matnning lingvopoetik xususiyatlari”, “Poetik birliklar konnotatsiyasi” mavzularida tanlov fanlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eshqobil Shukur she’rlarining lingvopoetik tadqiqi bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Eshqobil Shukur asarlari misolida tilshunoslikda she’riy asarlarni lingvopoetik aspektida o’rganishda muallif – matn omili muhim o’rin tutishi asoslanib, ijodkorning milliy tilimiz imkoniyatlaridan qay darajada o’rinli foydalanganligi yuzasidan chiqarilgan xulosalardan T.N. Qori-Niyoziy nomidagi O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog’iston filialida 2017-2020-yillarda bajarilgan F3-2016-0908165532- raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining T.N. Qori-Niyoziy nomidagi O’zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog’iston filialining 2023-yil 20-noyabrdagi 578-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Eshqobil Shukur she’rlarida ikkilantirilgan, takror qo’llangan, so’zdagi o’rni almashtirilgan unli va undosh tovushlar; ko’chma ma’noli so’zlar, laqablar, pretsedent nomlar; lingvopoetik ahamiyatli so’z birikmalari, gaplar, o’xshatishli qurilmalar, pretsedent birliklarning badiiy nutqda estetiklikni hosil qilishi masalasiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yilda bajarilgan “A-OT-2019-10 raqamli “O’zbek tilida neyning: me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 19-iyundagi 04/1-1228-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari nazariy va amaliy jihatdan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 1 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta (6 ta respublika hamda 5 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 sahifa.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, tadqiq obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati qayd etilgan, tadqiqot natijalarining joriylanishi, nashr etilgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Badiiy til va uning tadqiqiga lingvopoetik yondashuv**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli “Tilshunoslikda badiiy matnning lingvopoetik aspektda o‘rganilishi” deb atalgan. Lingvopoetika til birliklarining matnda estetiklikni ifodalashi, matnga estetik quvvat berishi va shu maqsad asosida qo‘llanishini tahlil qiluvchi filologik yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab rivojlana boshladi⁷. M.S. Stepanov ta’kidlaganidek, lingvopoetikada poetik diskursning yaxlit hodisa sifatida tadqiq etilishi badiiylikning tub mohiyatini aniqlashga, u bilan bog‘liq kommunikatsiya, til va madaniyatning mavjudlik qonuniyatlarini belgilashga xizmat qiladi⁸.

Tilshunoslikda lingvopoetik aspektdagi tadqiqotlarni til birliklarining poetik vazifasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Lingvopoetik tahlillar asosida til birliklarining badiiy nutqda yuzaga chiqadigan poetik xususiyatlarini aniqlash, shu bilan birga, adiblarning lisoniy qobiliyatiga, tildan foydalanish mahoratiga haqqoniy baho berish mumkin bo‘ladi. Buni inobatga olgan ko‘plab tilshunoslar til birliklarining poetik xususiyati faqat va faqat badiiy matnda namoyon bo‘lishini e’tirof etishdi⁹. Albatta, lingvopoetikada adibning niyatini yuzaga chiqaruvchi til birliklarining estetik ma’noni hosil qilishdagi o‘rni, ulushini aniqlash muhim. Til birliklari tadqiqiga badiiy matn tahlili orqali yondashuv ularning poetik imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ammo “... Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo‘lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun bundan tashqari ayni paytda badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi”¹⁰.

Tilshunoslar lingvopoetikaning nafaqat adabiyotshunoslik, balki lingvistika bilan ham hamkorlik qilishi haqida ko‘p fikr bildirishadi¹¹.

Dunyo tilshunosligida, xususan, o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab badiiy matn lingvopoetik aspektda tadqiq etila boshlandi. Bu yo‘nalishdagi ishlarda lingvopoetik tahlil metodlari, tamoyillari belgilandi. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiq obyekti ekanligi asoslandi, til birliklarining lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi.

O‘zbek tili materiallari tahliliga asoslangan lingvopoetik nazariyalarga oid ilk qarashlar taniqli olim N. Mahmudovning ilmiy maqolalarida yoritildi. Uning qator maqolalarida badiiy so‘zning lingvopoetik xususiyatlari chuqur ochib berildi¹².

Lingvopoetikaning dolzarb masalalari professor A.Nurmonov tomonidan ham

⁷ Qarang: Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – 23 с.

⁸ Степанов М.С. Денотация и коннотация в поэтическом дискурсе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007. – 20 с.

⁹ Qarang: Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – С.5.

¹⁰ Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.27.

¹¹ Умирова С.М. Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърят мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.12.

¹² Маҳмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б.48-51; Shu muallif. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – Б.34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б.12-17.

o‘rtaga tashlandi. Uning fikricha, “Tilning birinchi funksiyasi an’anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir”¹³. Darhaqiqat, tilning vazifalari xilma-xil, uning insonga hissiy ta’sir ko‘rsatish vazifasi nafaqat adabiyotshunoslikka, balki lingvopoetika yo‘nalishiga ham daxldor muammodir.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik aspektdagi dastlabki dissertatsiyalar sifatida I. Mirzayev, G. Muhammadjonova, M. Yo‘ldoshev, M. Yaqubbekova, D. Jamoliddinovalarning tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin¹⁴. Bu ishlarda lingvopoetikaning eng muhim masalalari – badiiy matnni lingvopoetik aspektda tadqiq qilish metodologiyasi va metodlari, tahlil tamoyillari belgilab berildi, til birliklarining poetik xoslanishi, badiiylikni hosil qilishdagi ahamiyati yoritildi. So‘nggi yillarda muayyan adiblarning asarlarini lingvopoetik aspektda o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Ularda M. Yusuf, E. A‘zam, U. Azim, O‘. Hoshimov va boshqa adiblar asarlari, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari matnining lingvopoetik xususiyatlari ochib berildi¹⁵.

Bugungi kunga kelib, ayni sohada amalga oshirilgan ushbu ishlar qatorida o‘ziga xos individual uslubiga ega taniqli shoir Eshqobil Shukur she‘rlarining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Shuni inobatga olib, ushbu tadqiqotda shoir she‘rlari badiiyatini ta‘minlashda qo‘llangan tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklari aniqlanib, lingvopoetik xususiyatlarini ochib berish maqsad qilindi.

Bobning ikkinchi fasli “**Eshqobil Shukur she‘riyatidagi xalqona motiv va an‘analar ifodasida badiiy tilning o‘rni**” deb nomlangan. Eshqobil Shukur o‘tgan asrning 80-yillarida xalqona uslubda ijod qiluvchi shoir sifatida o‘zbek adabiyotiga kirib keldi. U she‘rlarida milliy-madaniy xazinamiz hisoblangan maqol, matal, topishmoq, tasviriy ifoda, iboralardan samarali foydalanib, obrazli tasvirlar yaratishga hamda she‘rlari ta‘sirchanligini, xalqchilligini ta‘minlashga muvaffaq bo‘ldi. Shoirning quyidagi satrlariga e‘tibor qaratamiz:

Tilim tiyildi mening, so‘zim qiyildi mening. Po‘lat til topib oldim, havo so‘z topib oldim. (“Chanqovuz”) ... Boshi bir yoqadan chiqqan mamlakat, Mangulikni yo‘rgaklagan ibtido. (“Qadimiy bitiktoshlarga yozuvlar”)

¹³ Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарк, 2002, – 159 б.; Yana qarang: Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. 1-жилд. – Б.163-164.

¹⁴ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2004. – 25 б; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 21 б; Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 316 б.; Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.

¹⁵ Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс автореф. – Фарғона, 2017. – 50 б.; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 76 б.; Умирова С. М. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 48 б.; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 51 б.

Birinchi misrada shoirning o'xshashlikka asoslangan individual assotsiyatsiyalari asosida chanqovuzga nisbatan *po'lat til, havo so'z* tasviriy ifodalari yuzaga kelgan. Ushbu tasviriy ifodalar she'riy misrada o'ziga xos obrazlilikni yuzaga keltirgan. "... chanqovuzning chalinishida til va havoning ishtiroki bu o'xshashlik ma'nosini poetiklashtirishga xizmat qilishi bilan ibratli. Bu – shoirning boshqalarnikiga o'xshamagan poetik topildig'i, kashfiyoti"¹⁶.

Keyingi she'riy parchada esa "birgalikda harakat qilmoq, hamjihatlikda biror ishni bajarmoq, jipslashmoq" ma'nosini anglatuvchi *bir yoqadan bosh chiqarmoq* iborasi qo'llangan. Mazkur ibora she'rda *boshni bir yoqadan chiqarmoq* shaklida ishlatilgan. Shoir *bosh* so'zini tushum kelishigida va ibora boshida qo'llash orqali bu so'zga alohida urg'u berib, unga ta'kid ma'nosini yuklagan.

Shoir she'rlarida qo'shiq, rivoyat, ertak kabi xalq og'zaki ijodi namunalari ko'p uchraydi. Uning xalq og'zaki ijodi namunalariga bo'lgan samimiy muhabbati she'rlariga ham ko'chgan deyish mumkin. Masalan: *Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay! Men qushlarning tushlarida ko'rinay, Men tushlarning qushlarida ko'rinay Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!*. ("Ruhim")

Misralarda keltirilgan *qushlar, tushlar* so'zlarining takror va o'rni almashgan holda qo'llanishi mumtoz adabiyotdagi tardi aks san'atini anglatadi. Xalq qo'shiqlari uslubidagi *Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!*.. satrlari Surxon qo'shiqlariyu, dostonlarini eslatadi. Shoirning bu va boshqa she'rlari, masalan, "*Hoyyo-huyt, hoyyo huyt*", "*Ho'o'o'sh-ho'o'o'sh... Ho'o'sh...*", "*Boy bola*" singari qator she'rlarida aytm, qo'shiqlar ohangi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoir she'rlarida rivoyatlarga ishora qilingan holatlar ham mavjud. Uning quyidagi misralarida N.Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi mashhur "Sulaymon va qarinchqa" rivoyatiga ishora qilingan¹⁷, natijada she'rda obrazlilikka erishilgan: *Nechuk sensiz o'tdi umr... hayronmen, Gahi chumolimen, gah Sulaymonmen...* ("Ishq va talab qayg'usi")

Eshqobil Shukur o'zbek va boshqa xalqlar ertaklarini she'rlariga olib kirgan shoirdir. Masalan, uning "Qiz qo'shig'i" she'rda qo'llangan *Yoriltosh* so'zi o'zbek xalq ertagi "Yoriltosh"ga ishora qiladi.

Shoir she'rlarida xalqchilikni ta'minlashda o'zbek xalq maqollaridan ham unumli foydalangan. Ammo ulardan shunchaki foydalanmagan, balki ayrim o'zgartirishlar kiritib, ta'sir kuchini yanada oshirgan. Masalan, "*Qor edim, qalovim topildi, yondim, Suv edim, olovim topildi, yondim...*" ("Hamal ayvoni") satrlarida "*Qalovini topsang, qor ham yonadi*" maqoli individual yondashuv asosida "*Qor edim, qalovim topildi, yondim*" tarzida o'zgartirilgan. Natijada maqolda aks etgan hikmat alohida ta'kidga ega bo'lgan. Shuningdek, ushbu maqolning "*Suv edim, olovim topildi, yondim*" tarzidagi varianti hosil qilinib, she'rda ta'sirchan badiiy-estetik obraz hosil qilingan.

Shunisi xarakterliki, shoir juda ko'p o'rinlarda xalq maqollari asosida "o'z

¹⁶ Qahramonov Q. "Qushdan ildiz oldim qanotni guldani" // <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/> maqolalar/qurdosh-qahramonov-qushdan-ildiz-oldim-qanotni-guldani

¹⁷ Mazkur rivoyat haqida qarang: Rажабова Б. Бир рамзий образ талкинига доир ("Тарихи анбиё ва ҳукамо" асари мисолида) // "Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари" мавзуидаги Республика II илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2020. – Б.114.

maqollari”ni yaratgan. Bu holat uning individual uslubini namoyon etishga xizmat qilgan. Masalan, “Ot aylanib” she’rida o‘zbek xalqining mashhur “*Ot aylanib qozig‘ini topadi*” maqoli keltirilgan. Muallif ushbu maqolga hamohang holatda “*Zot aylanib tuzlig‘ini topadi*”, “*El aylanib o‘zligini topadi*” “maqol”larini hosil qilgan. Bu holat she’rga o‘ziga xos joziba, badiiy-estetik ruh bera olgan.

Shoir o‘z she’rlaridan biriga bolalar milliy o‘yinlaridan bo‘lgan o‘yin nomidan kelib chiqib, “Potini” nomli sarlavha qo‘ygan. She’r sarlavhasida berilgan izohga ko‘ra bu o‘yinda ishtirok etayotgan odam ma’lum muddat “soqov” bo‘lib o‘tirishi kerak. Shoirning mahorati shundaki, turg‘unlik yillaridagi vaziyat bilan “Potini qo‘yish” o‘yining asosiy qoidasi hisoblangan jimlik o‘rtasidagi o‘xshashlikni nozik bir tarzda ilg‘ay olgan va ushbu o‘yinga ta’rif berish orqali o‘sha davrda hukm surgan “gunglik” ka ishora qilgan:

Potini - ya, potini, Xotiramdan o‘chirdim Yuragimning otini. Jim. Jim.

She’rning har bir bandi oxirida *jim* so‘zining takrorlanishi she’r muallifi ko‘zlagan maqsadni yanada kuchaytirishda lingvopoetik vosita bo‘lgan.

Shoir she’rlarida shevaga oid so‘zlarning qo‘llanishi ham kuzatiladi. Ayni xususiyat uning she’rlari ifoda mazmuniga putur yetkazmagan, balki xalq tiliga yanada yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Xullas, Eshqobil Shukur she’rlarida xalqona motiv va an’analar o‘z ifodasini topgan. U she’rlarida ko‘pincha so‘zlarning xalq orasida ishlatiladigan variantini qo‘llagan. Shu jihatdan uning she’rlari sodda tili, ammo badiiy-estetik yuksakligi bilan o‘ziga xoslik kasb etgan.

Bobning uchinchi fasli “**Shoirning badiiy so‘z va ona tiliga oid qarashlari**” deb nomlangan. Eshqobil Shukur so‘zning qudratini chin yurakdan his qila oladigan shoirdir. O‘zi aytganidek, u so‘zni his qilishdan, uning mohiyatini ilg‘ashdan o‘rnini hech nima bosolmaydigan bir zavq tuyadi, o‘zbek tilidagi biron-bir so‘zning unga noma’lum bo‘lgan biron-bir jihatini topib olsa, o‘ziga noma’lum bo‘lgan sirni kashf etganday bir holga tushadi¹⁸.

Ijodkorning badiiy so‘zga munosabati ona tiliga bo‘lgan munosabati orqali namoyon bo‘ladi. U o‘z tili oldida inson va shoir sifatida qarzdorligini his qiladi, bu tilni “Ona tili” degandan ko‘ra katta harflar bilan yozib, “Ona Til” deyish o‘rinli ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, “Ona Til” deyish insonni burchliroq va mas’uliyatliroq bo‘lishga yo‘l ochadi. Chunki Ona Tilda kuylangan shoh asarlar bu tilni tirik bir obyektga aylantira oladi¹⁹.

Shoirning so‘zga, ona tiliga bo‘lgan munosabati etimologik kuzatishlarida ham ko‘zga tashlanadi. Uning “Boboso‘z izidan. So‘zlar bilan so‘zlashuv”²⁰ kitobida xalq tilida qo‘llanuvchi ayrim so‘z va iboralarning kelib chiqishi haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Muallif mazkur kitobida o‘z etimologik qarashlarini dalillash uchun bir necha qadimgi turkiy tillar izohli lug‘atlariga, etimologik lug‘atlarga, darslik va o‘quv qo‘llanmalarga, tarixiy, badiiy asarlarga, xalq tili materiallariga murojaat qilgan. U M.Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, A. Navoiy,

¹⁸ Эшқобил Шукур. Шоир ўз тилида куйлаши керак // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2012. – №21.

¹⁹ Eshqobil Shukur. Ko‘rsatilgan maqola.

²⁰ Эшқобил Шукур. Бобо сўз изидан (Сўзлар билан сўзлашув). – Тошкент, Mashhur-press нашриёти, 2018. – 336 б.

Z.M. Bobur, Mashrab, A. Qodiriy, H. Olimjon, G'. G'ulom asarlari hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan misollar keltirib, ba'zi so'zlar, iboralar, so'z birikmalarining kelib chiqishini sharhlashga harakat qilgan. Ushbu kitobda berilgan ayrim so'zlarning etimologik tavsifini keltirib o'tamiz.

Shoir *qaymoq* va *quymoq* so'zlariga quyidagicha etimologik tavsif beradi: "M. Koshg'ariy "Devon"ida "*qaymoq*" so'zi "qayuqlandi" so'zidan kelib chiqqan deb izohlanadi. Qadimda "*yog*"ning "*moy*" so'zidan tashqari "*qay*" shakli ham bo'lgan ekan. Demak, "*qaymoq*" "*yog'landi*", "*yog'li bo'ldi*" ma'nolarini ifoda etadi. Bu o'rinda "*quyuqlandi*" so'zi ham tub ildizga yaqin keladi. Endi "*quymoq*" so'ziga kelsak, bu so'zning paydo bo'lishiga "*quyish, quymoq*" fe'li asos bo'lishi mumkinligi ehtimolga yaqin"²¹. Demak, shoir so'zning etimologiyasini izohlashda dastlab uning qadimiy shakllarini aniqlagan, fikrini asoslash uchun tarixiy manbalarga murojaat qilgan, faqat shundan so'ng muayyan xulosalar chiqargan.

Shoir kitobda ayrim kishi nomlari, narsa otlari, belgi bildiruvchi so'zlar, harakat ifodalovchi so'zlarning etimologik tavsifini ham aniq va ishonchli dalillar bilan izohlab bergan. Masalan, *turlanmoq* fe'li ma'nosi haqida quyidagi xulosani bildiradi: "Qadimgi turkiy tillarda "tur" so'zi "rang" degan ma'noni anglatgan. Demak, "turli" so'zi rangli degani. "Turlanish" esa xilma-xil ranglarda ko'rinish, ranglanish ma'nosini ifoda qiladi. Odamga nisbatan "turlanish" sifatining qo'llanishida salbiy ishora bor, chunki turumi yo'q, qat'iyatsiz, vaziyatga qarab o'zgaraveradigan kishilarga qarata "ko'p turlanadigan odam" iborasi ishlatiladi"²².

Tahlildan anglashiladiki, muallif *turlanmoq* so'zining nafaqat kelib chiqishi, balki insonga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llanganda anglatadigan ma'nosini ham nazardan qochirmagan. Demak, Eshqobil Shukur kitobda keltirilgan har bir so'zga shunchaki izoh bermagan, balki bu so'zlarning ma'no qirralarini chuqur his qilgan holda etimologik tavsif bergan. Uning ayni kitobdagi so'zlar tahliliga oid kuzatuvlarida ikki jihat ko'zga tashlanadi: 1) tahlilga tortilgan so'zlarning shoir ijodida uchrashi; 2) so'zlar izohida badiiy asarlardan misollar keltirilishi.

Kitobda berilgan "Qo'shmaso'zlarim" sarlavhali she'r, ayniqsa, ahamiyatli. Muallif ushbu she'ri orqali go'yo o'zbek tilida qo'shma so'zlarning ajratib yozilishi masalasiga o'z munosabatini bildirib o'tgandek. She'rda *momomehr(im)*, *momoso'zli(msan)*, *singildil(im)*, *singilyuzli(m)* kabi shaxs otlari bilan yasalgan yoki *ko'ngiltil(im)*, *ko'ngilko'zli(msan)* kabi mavhum otlar bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar yaxlit birlik sifatida qo'shib yozilgan. Bizningcha, shoir bu so'zlarni qo'shib yozib to'g'ri yo'l tutgan.

Mazkur kitobda Alisher Navoiy asarlarida ayrim so'zlarning qanday ma'noda qo'llanganligi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Masalan, shoirning "Saddi Iskandariy" dostonida "*Ki, kimsandin oltunni farq aylagay, Qizil tobadin kunni farq aylagay*" misrasida kelgan *kimsan* so'zi "oltinga o'xshash sariq yaltiroq modda, ya'ni bronza" ma'nosida qo'llanganligiga asoslanib, muallif "Kimsanboy" shunchaki "kimsan" emas, u oltin bo'lmaganda ham, oltinga

²¹ Eshqobil Shukur. Ko'rsatilgan asar. – B. 35.

²² Eshqobil Shukur. Ko'rsatilgan asar. – B. 31.

o'xshash sariq yaltiroq modda" ma'nosini anglatishini dalillaydi²³. Demak, xalqimizda o'g'il farzandga qo'yiladigan *Kimsan* ismida yashirin ma'no mavjud.

Eshqobil Shukur so'zlar etimologiyasini keltirishda Alisher Navoiy she'rlariga ko'p murojaat qilgan. Alisher Navoiy kabi saroy she'riyatida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorning so'zdan foydalanish uslubi o'ziga xos edi. Shu sababli ham Eshqobil Shukur Alisher Navoiy she'riyatiga suyanib, etimologik kuzatuvlarini olib bordi va bir vaqtning o'zida so'zning shoir ijodida hamda o'sha davrda oddiy xalq tilida anglatgan ma'nolarini kuzatdi. Boshqacha aytganda, u kundalik hayotda qo'llanuvchi so'zlarning ma'nosini poetik matnlardan qidirdi. Albatta, har qanday so'z matnda badiiy estetik bo'yoqqa ega bo'lar ekan, yangi ma'no qirralarini namoyon qiladi. Shu jihatdan ham, shoirning so'zlarning etimologik ma'nosini izohlashda ko'proq badiiy manbalarga suyanligi asosli. Xullas, shoir ushbu kitobi orqali etimologik tadqiqotlarda buyuk ajdodlarimiz asarlari bizga ko'p jihatdan yordam berishi mumkinligini asoslab bergan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Eshqobil Shukur she'riyatida fonetik va leksik birliklar lingvopoetikasi**" deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi faslida shoir she'rlarida fonetik birliklarning badiiy-estetik vazifasi tahlil qilingan. Tildagi fonetik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari bevosita badiiy nutqda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan badiiy matnning lingvopoetik tahlilida fonetik birliklarning badiiy-estetik vazifasini ta'minlashdagi o'rnini aniqlash nihoyatda muhim.

She'riyatda tildagi unli va undosh tovushlar, bo'g'in, urg'u kabi fonetik vositalarning badiiylikni ifodalashga xizmat qilishi ko'p kuzatiladi. Bunday vaqtda ushbu fonetik vositalar poetik vazifa bajarib, lingvopoetik qimmatga ega bo'ladi. A. Nurmonov qayd etganidek, "... Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi"²⁴. Eshqobil Shukur she'rlarida ham ayrim fonetik vositalar badiiy-estetik tasvir yaratishda muhim o'rin tutgan.

Shoir ba'zan so'zlarning shevadagi fonetik variantlari orqali ta'sirchanlikka erishgan. Quyidagi she'riy parchalarda *yamonim* (*yomonim*), *devol* (*devor*) so'zlari shevaga xos fonetik variantlarida ishlatilib, badiiy nutqning ta'sirchanligini yuzaga keltirgan. Shoir "*Yaxshim ham, yamonim ham*" misrasidagi *yomonim* so'zida o unlisini *a* tovushiga almashtirish orqali unli va undosh tovushlari uyq'unligini (assonans) ta'minlashga ham muvaffaq bo'lgan. Yoki "*Bu – Dengiz devoliga chizilgan tasvir Bir qultum hayotday yutilgan daryo...*" ("Naqshband") satrlarida *devor* so'zini *devol* shaklida berish orqali she'rini xalq tiliga yaqinlashtirgan, shu bilan birga, ayni so'z ifoda etgan obyektga o'quvchi e'tiborini qaratgan.

Shoir ko'p hollarda undosh tovushlar takroriga e'tibor qaratib, she'rlarining ta'sir kuchini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Masalan, "*Siz ma'yus, iyanib yaqinlashar chog', Yelkam yelka emas, yetmish ikki tog'*" ("Hamal ayvoni") misrasida y undoshiga asoslangan ohangdoshlikni yuzaga keltirgan.

²³ Eshqobil Shukur. Ko'rsatilgan asar. – B. 15.

²⁴ Нурмонов А., Ўўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарк, 2002; Yana qarang: Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. 1-жилд. – Б.163-164.

Eshqobil Shukur she'rlarida quyidagi holatlarda unli va undosh tovushlarga poetik konnotativ vazifa yuklatilgan: **1) she'rda so'z tarkibidagi unlini ikkilantirish orqali poetik konnotatsiya hosil qilingan:** ... *Derazangdan nari bepoyon, bedil Yastanib yotadi shunday mangulik: "O', yana o'shami... O'sha... Eshqobil". O'o' yanaa o'shaami o'shaa Eshqobiil.*

Ushbu she'riy parchada "*O'o' yanaa o'shaami o'shaa Eshqobiil*" misrasida shoir o', a, i unli tovushlarini qo'sha qo'llash orqali ta'sirchanlikka erishgan. Bu holat she'rda o'ziga xos badiiy ifodani yuzaga keltirgan. Ayniqsa, she'rda qo'llangan "*O', yana o'shami... O'sha... Eshqobil*" sintaktik takrori shoirning o'ziga xos individual uslubini shakllantirishga xizmat qilgan;

2) she'rda so'z tarkibidagi unlini cho'ziq holatda ifodalash orqali poetik konnotatsiya hosil qilingan. Shoir she'rlarida o, a, o' unlilarining cho'ziq talaffuz qilinishi kuzatiladi: *Bek bo'lar ularim qul bo'ldi, Suluv bo'lar qizlarim cho'ri... Alp erlar yuragi yirtildi, Vo-o, sho'rim! Vo-o, sho'rim!...* ("Hamal ayvoni")

Ushbu she'rda qo'llangan *Vo-o* undov so'zi tarkibidagi o unlisining cho'ziq talaffuz qilinishi bir tomondan, lirik qahramonning qayg'u-iztirobini bo'rttirish uchun xizmat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan, voqelikka salbiy bahosini ifodalashga xizmat qilgan. Ayniqsa, uning har to'rt misradan keyin takrorlanib kelishi she'rda o'ziga xos estetik effektini yuzaga keltirgan.

Quyidagi she'rda esa *ho'sh* so'zi tarkibidagi o' unlisining cho'ziq talaffuzi aks etgan. Shuningdek, misrada ushbu so'zning takror qo'llanishi ham lirik qahramon iztiroblarini kuchli ifodalash uchun xizmat qilgan: *Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh... Bir tirnoqqa zor bo'ldim, Egasiz mozor bo'ldim....* ("Sog'in. Befarzand ayol");

3) she'rda undosh tovushning ikkilantirilishi orqali poetik konnotatsiya hosil qilingan. Eshqobil Shukur she'rlarida undoshlarning ikkilantirilishi (geminatsiya), asosan, y, m, v, r undoshlarida kuzatiladi. Ulardan ayrimlariga misol keltiramiz: *Cho'jalari cho'lda qolgan boy bola, Qulunlari qumda qolgan boy bola, voyy bola-a...* ("Yonib ketgan marsiya bo'laklari")

Berilgan she'riy parchada *voy* so'zi tarkibida y undoshini ikkilantirish orqali o'ziga xos ekspressiv-emotsionallikka erishilgan. E'tirof etish joizki, she'riyatda y undoshining ikkilantirilishi nisbatan kam uchraydi. Umuman, o'zbek tilidagi har qanday undosh yoki unli tovushni ikkilantirish orqali unga poetik vazifa yuklatiladi deb ayta olmaymiz. Nazarimizda, badiiy nutqda tovushlarning ikkilantirilishi so'zning tovush tarkibi, ma'no xususiyatlari bilan ham bog'liq. Asosiy hollarda belgi ifodalovchi so'zlarda (*mazza, zo'rr* kabilar), his-hayajon undovlari (*uvv, uhh* kabilar)da undosh tovushlarning ikkilantirilishi uchraydi. Eshqobil Shukur tomonidan *voyy* undov so'zida y tovushining ikkilantirilishi so'z ma'nosi, tovush tarkibi bilan bog'liq. Shu sababli bu so'zda ushbu tovushning ikkilantirilishi she'riy matnning musiqiyliigi, uning intonatsion tuzilishiga zarar yetkazmagan. Aksincha, unga badiiy-estetik bo'yoq berib, poetik konnotatsiyani hosil qilgan.

Shoir she'rlarida ba'zan *m* undoshining ikkilantirilishi kuzatiladi. Quyidagi parchada *jimm-gina* so'zida *m* undoshining ikkilantirilishi harakat tarzini bo'rttirishga xizmat qilgan hamda lirik qahramonning ruhiy holatiga ishora qiladi. Lirik qahramon jimgina yashashga juda-juda mushtoq, uning ruhiyati orom olishni

qo‘msaydi: *Yashagim keladi jimgina... Yashagim keladi jimm-gina...* (“Qadimgi kuy”);

4) she’rda undosh va unli tovushlar takrori orqali poetik konnotatsiya hosil qilingan. Eshqobil Shukur she’rlarida undosh tovushlar takrori orqali alliteratsiyaning hosil qilinishi ko‘p uchraydi. Bunday holatda undosh tovushlarga konnotativ ma’no (ta’sirchanlik) yuklatiladi va estetik mazmunga erishiladi. Masalan: *Ko‘k eshakni minibsana, Ko‘k paranji yopinibsana, Ko‘kaylari kesilgan Ayol, Ko‘krak suti buzilgan Ayol, Bir el elanadi: qo-ol!...* (“Orol”)

Mazkur she’riy parchada *k* tovushining so‘z boshida takror kelishi konsonans alliteratsiyani hosil qilgan.

Shoir she’rlarida *q, s, y, m* undosh tovushlari takroriga asoslangan alliteratsiya ham uchraydi. Dissertatsiyada ularga misollar yordamida izoh berilgan.

Eshqobil Shukur she’rlarida biror belgisiga ko‘ra o‘xshash tovushlar takroriga asoslangan alliteratsiya ham kuzatildi. Bu kabi alliteratsiyaning mavjudligi ayrim manbalarda ham aytib o‘tilgan. Jumladan, S. Umirovaning fikricha, alliteratsiyani bir-biriga mos keladigan *d-t, z-s* kabi o‘xshash tovushlarning uyg‘unligi deb ham tushunish lozim²⁵. Shoir she’rlarida esa *t-sh-l* tovushlari; *z-s, q-s* tovushlari uyg‘unligi kuzatiladi: *Tog‘larimning toshlarida tonglar yorildi, Anduhimning yoshlaridan tunlar tirildi.* (“Xalq ohangida”); *Quvg‘inida qatronning Qum kechdim- olov kechdim. Sarg‘aygan saratonning Sarobidan suv ichdim.* (“Hijron dardi”)

Shoir she’rlarida unli takrori ham kuzatiladi. Badiiy nutqda unli tovushlar takroriga asoslangan, matnga intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlikni baxsh etish maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir²⁶. Quyidagi she’riy misralarda *a, o* unli tovushlarning takrori assonansni hosil qilishi natijasida matnda ohangdorlik yuzaga kelgan: *Ko‘pchigan tuproqda qaqrar saraton, Bahor tebratadi rangpar havoni. Olti oy oldinda qaqsar qahraton, Kuzgacha omon elt olti daryoni* (“Bobodehqon”)

Tadqiqotda shoir she’rlarida so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘rin almashinuvi hamda so‘zning fonetik jihatdan o‘zgarishga uchragan shakli orqali poetik konnotatsiya hosil qilinishi ham misollar tahlili orqali asoslangan. Xullas, Eshqobil Shukur she’rlarida qo‘llangan bu kabi fonetik vositalar she’riy matnga badiiy-estetik bo‘yoq berishga xizmat qilgan.

Bobning ikkinchi fasli “**Ijodkor she’rlarida ko‘chma ma’noli so‘zlar lingvopoetikasi**” deb nomlangan. Eshqobil Shukur she’rlarida poetik ahamiyat kasb etgan leksik birliklarning estetik mohiyatni hosil qilishdagi vazifasini aniqlash muhim. Tadqiqotning hajmini inobatga olgan holda bobning bu va keyingi fasllarida shoir she’rlarida xarakterli bo‘lgan ko‘chma ma’noli so‘zlar, kishi ismlari orqali estetiklikning ifodalanishi hamda ayrim leksik birliklarning badiiy san’atlarni hosil qilishda qo‘llanish xususiyatlari yoritildi.

Shoir she’rlarida tasvirni yanada teranlashtirish, unga badiiy-estetik bo‘yoq

²⁵ Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърляти мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 49.

²⁶ Бу ҳақида қаранг: Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 46.

berish maqsadida ba'zi so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llagan. Masalan:

*Bu muslim daraxtlar jannatdan qiyos... Tangri qachonlardir tilingga ekkani,
So'zlar gullayotir qiyg'os va qiyg'os. ("Anjuman")*

Ushbu she'riy parchada keltirilgan *muslim daraxtlar, tilingga ekkani (so'zlar), so'zlar gullayotir* birikmalari tarkibida *muslim, ekkani, gullayotir* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanishi natijasida birikmalar yangi ma'no kasb etibgina qolmay, obrazli tasvirni hosil qilishga ham xizmat qilgan. Shoir ba'zan she'rlarida so'zni ko'chma ma'noda qo'llab, unga yangi ma'no yuklagan: *Qumlarga dafn etdik yoshligimizni, Sirlar injularin suvlarga berdi...* ("Hamal ayvoni")

Ma'lumki, *dafn etmoq* so'zi "ko'mmoq, qabrga qo'ymoq" ma'nosida vafot etgan insonga nisbatan ishlatiladi. Ammo she'rda bu so'z *yoshlik* so'ziga nisbatan metaforik ma'noda ishlatilgan. Shoir *dafn etmoq* so'zini insonga nisbatan "yoshligi qumlarda o'tmoq" ma'nosida qo'llab, o'ziga xos obrazli tasvirni hosil qila olgan.

Quyidagi she'riy parchada shoir sinestetik metaforani hosil qilib, o'ziga xos estetik tasvir yarata olgan: *Hayot tarozisi – yelkamda xurjun – Bir ko'z yengil shodlik, bir ko'z og'ir g'am...* ("Shoir")

Bu o'rinda ko'chma ma'noda qo'llangan *yengil, og'ir* so'zlari, aslida, o'lchov bildiruvchi so'zlar sanaladi, ammo shoir *yengil* so'zini "yaxshi, yoqimli"; *og'ir* so'zini "yomon, azobli" ma'nolarida qo'llash orqali sinestetik metaforani hosil qilgan. Darhaqiqat, bunday metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi²⁷.

Eshqobil Shukur she'rlarida metonimik ko'chimga uchragan leksik birliklar ham alohida o'ringa ega. Shoir bunday so'zlar orqali she'rlarining ta'sir kuchini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Masalan: *Bir kas tanglayida qurbaqa sayrab, "Qur'on" bilan bahslashib o'tirardi...* ("Kechki sayrdagi kuzatishlar")

Ushbu she'riy parchada *Qur'on* so'zi metonimik ko'chimga uchragan. Shoir bu so'zga "Qur'on kitobida yozilgan sura, oyatlar" ma'nosini yuklagan. "*Qur'on*" bilan bahslashib o'tirardi... misrasida bahslashmoq so'zining Qur'onga nisbatan qo'llanishi natijasida tashxis san'ati yuzaga kelgan.

Shoir she'rlarida leksik birliklarning sinekdoxa usulida yangi ma'no ifodalashi ham qayd etildi. Quyida keltirilgan she'riy parchada butun nomi o'rnida bo'lak nomining qo'llanishi kuzatiladi: *Qarigan eshikdan dalda kutadi, Tobutga aylanar beshiksiz "vatan", Oq ismli nafas tunni yutadi, Sho'r taqdirga taskin bo'g'chada kafan.* ("Ro'zg'or butligi")

Ijodkor bu o'rinda "vatan" so'zini *uy* ma'nosida qo'llagan. She'rda beshiksiz uyning tobutga qiyoslanishi ta'sirli chiqqan. O'zbek tilida *taqdiri sho'r // sho'r taqdir* iborasi mavjud. Shoir *sho'r taqdir* iborasini insonga nisbatan qo'llash orqali metonimiyani hosil qilgan. Xullas, Eshqobil Shukur obrazli tasvirni hosil qilishda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, she'rlarining ta'sirchanligini oshirgan.

Bobning uchinchi fasli "**Eshqobil Shukur she'rlarida qo'llangan kishi nomlarining estetik vazifasi va hissiy ta'sir quvvati**" deb nomlangan. Badiiy adabiyotda personajlarga nom tanlash adibning lisoniy mahoratidan dalolat beradi,

²⁷ Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2020. – B.108.

uning o'ziga xos uslubini namoyon qiladi. Mana shularni inobatga olgan holda tadqiqotning ushbu faslida shoir she'riy matnlarida ishlatilgan kishi nomlarining lingvopoetik xususiyatlarini yoritish maqsad qilib belgilandi.

Shoir she'rlarida qo'llangan kishi nomlari jamiyatda faol qo'llanib kelinayotgan kishi ismlari, muallif yaratgan okkazional ism va laqablar hamda pretsedent nomlar maqomidagi mashhur shaxslar ismlari, taxalluslardan iborat bo'lib, she'riy matnda poetik yuk olgan. Qizig'i shundaki, shoir o'z ismini she'rlarida juda ko'p takrorlagan: ba'zan o'ziga murojaat qilgan, ba'zida lirik qahramon sifatida o'z shaxsiga tavsif bergan va bu usul orqali asarlarida ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan. Quyidagi she'riy parchada shoir *Eshqobil* ismini *Muhammad payg'ambar (s.a.v)*, mashhur tarixiy shaxslar *Suvorov*, *Che Gevara*, *Robin Gud* nomlari bilan yonma-yon qo'ygan. Bu holat she'rda estetik ifodani yuzaga keltirish bilan birga, yillar o'tsa-da, urush asoratlari haqidagi qayg'uli xotiralar qa'ridan chiqib keta olmayotgan, ruhiyatini urush iztiroblari chulg'ab olgan lirik qahramonning kechinmalarini aniq ifodalashga xizmat qilgan: *Muhammad payg'ambar g'azotdan qaytdi, Suvorov qaytadi qaytganday ishdan. Che Gevara qaytdi, Robin Gud qaytdi, Eshqobil qaytmadi hamon urushdan.* ("Asorat")

Shoir she'rlarida *To'lg'onoy*, *Gulsum*, *Avaz*, *Xudoyqul*, *Xudoyberdi*, *Abduxoliq*, *Aziz*, *Said*, *Abduvali*, *Oysulton* kabi ismlar uchraydi. Bu ismlarning hammasi ham she'rda estetik vazifa bajargan deb bo'lmaydi. Ammo uning aksariyat she'rlarida kishi ismlari muayyan lingvopoetik maqsadlarda qo'llangani kuzatiladi. Jumladan, *Eshqobil Shukur* "Ozodlik" nomli she'rida *Usmon*, *Cho'lpon*, *Qodiriy* nomlari orqali mudhish qatag'on davriga ishora qilgan bo'lsa, *Tohir* va *Zuhra* ismlari vositasida ohorli o'xshatishni yuzaga keltirgan: *Tohir Zuhrosini suygani kabi, Men suymak istadim seni, Ozodlik.*

Quyidagi she'rda ham kishi ismi lingvopoetik vazifa bajarib kelgan: *Sitilib ketmoqda ko'zidan yo'llar, Sitilib bitmoqda umridan yillar, "Farzand ko'rsam edi uning ismini... Oh, uning ismini..." Xudosi bermagan Xudoyberdi chol...* ("Xudoyberdi chol hikoyasi")

She'rda *Xudoyberdi* ismiga *chol* leksemasini qo'shib qo'llash orqali shaxsning yoshga ko'ra xususiyati alohida ta'kidga ega bo'lgan. Kishi ismiga birikib kelgan *Xudosi bermagan* sifatlovchisida shoir uslubining o'ziga xos qirrasini namoyon bo'lgan. Ushbu sifatlovchi, aslida, *Xudosi farzand bermagan* tarzida bo'lib, *farzand* so'zi sifatlovchi tarkibidan tushirib qoldirilgan. Shoir *Xudo* va *Xudoyberdi* so'zlarini distant holatda qo'llash orqali *Xudo* so'zining poetik takrorini yuzaga keltirgan. Bu o'rinda, she'riy asarda *Xudoyberdi* ismining tanlanishiga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shoir chol yoshiga yetgan farzandsiz insonga bejiz *Xudoyberdi* ismini tanlamagan. Lirik qahramon ham, aslida, Ollohdan tilab olingan farzand. Shoir ushbu ism orqali uning tilab olinganligiga ishora qilgan.

Shoir she'rlarida laqablar ham uchraydi. Ma'lumki, laqablar orqali, avvalo, subyektiv munosabat ifodalanadi. Laqabning mana shu xususiyatidan mohirlik bilan foydalangan *Eshqobil Shukur* laqab ishtirokida o'ziga xos badiiy tasvir hosil qilgan: *Loyxo'r degan darvesh yashar bu joyda Qo'li boshida-yu, oyog'i loyda. Doim may quyqasin ichgani sabab, Unga Loyxo'r deya bermishlar laqab.*

(“Hakim Sanoiy va devona Loyxo‘r hikoyasi”).

Xullas, shoir she‘rlarida kishi nomlariga murojaat qilib, ulardan badiiy-estetik maqsad yo‘lida unumli foydalangan. Shoir she‘rlarida qo‘llangan mashhur kishilar ismlari, taxalluslar talmih san‘atini hosil qilib, badiylikni yuzaga keltirgan.

Bobning to‘rtinchi fasli “**Shoir she‘rlarida badiiy san‘atlar va ularda leksik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari**” deb nomlangan. Eshqobil Shukur she‘rlarida muayyan leksik birliklarga badiiy san‘atlarni hosil qilish vazifasini yuklab, ularning ta‘sir kuchini oshirgan.

Shoir she‘rlarida antonim leksemalar tazod san‘atini hosil qilishda faol qo‘llangan. Uning she‘rlarida *do‘st – dushman, kun – tun, tun – tong, katta – kichik, qaro – oppoq, o‘ng – so‘l, osmon – yer, kattalashmoq – kichraymoq* kabi antonim leksemalar orqali tazod san‘atining go‘zal va rangin namunalarini yaratilgan: *Yillar o‘tib ketdi. O‘z o‘tmishim bor – Kechganim goh dushman, goho do‘st bilan...* (“Olapar”) *Yonib-yonib o‘tar kun... Sajdagohga kelar tun.* (“Sevgining bir kuni”)

Shoir ba‘zi she‘rlarida leksemaning ko‘chma ma‘nosi asosida uning ziddiga qarshi qo‘yib, tazod san‘atini hosil qilgan. Masalan, quyidagi she‘riy parchada *hayot* va *o‘lim* leksemalari bir-biriga qarshilantirilgan. Bunday zidlantirishda *hayot* leksemasi “tiriklik” ko‘chma ma‘nosida qo‘llangan: *Ey sen, o‘z-o‘zini etolmagan jam, Hayot osmonda-yu, o‘lim yerdadur.* (“Ishq suhbatlari”)

Shoir she‘rlarida nafaqat antonim so‘zlar, balki bu xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlar hamda so‘z birikmalari ishtirokida ham tazod san‘atning go‘zal namunalarini yaratgan. Masalan, “Muvozanat” she‘rida *tor xona* birikmasi va *osmon* so‘ziga ko‘chma ma‘no yuklab, uch o‘rinda oppozitiv munosabatda ishlatgan: *Bu tor xona emas, balki bu osmon, Yulduzlarni gulday sochmoqda shamol...* Anglashiladiki, she‘rda *osmon* so‘zi “kenglik, keng makon” ma‘nosida ishlatilgan, *tor xona* birikmasi yaxlit holda “torlik, tor joy” ma‘nosiga ega bo‘lgan.

Eshqobil Shukurning ayrim she‘rlarida omonim leksemalar orqali tajnis san‘ati hosil qilingan. Masalan, uning quyidagi she‘rida *ko‘k – rang, ko‘k – osmon* ma‘nosidagi omonimlar yordamida tajnis san‘ati yuzaga kelgan: *Tegrangda shamollar tizilar. Havoda suzadi ko‘k tobut, Ko‘m-ko‘k kuy ko‘klardan uzilar.* (“Orol”) Ushbu she‘riy parchada shoir *k* tovushi bilan boshlangan *ko‘m-ko‘k, kuy, ko‘k* so‘zlarini ketma-ket qo‘llab, alliteratsiyani ham yuzaga keltirgan. Natijada misralarda ta‘sirchanlik yuzaga kelgan.

Shoir she‘rlarida uyadoshlik munosabatidagi *yulduz, osmon, oy; oy, kun, yulduz; til, tanglay, og‘iz; kafan, qabr; osmon, yer* leksik birliklari orqali tanosub san‘ati hosil qilingan. Masalan: *Yulduzlar titrar, hayron, Osmonning holiga voy. Qora kenglikdan kechib, Qiz ko‘ksiga qo‘ndi oy...* (“Eng qadimgi qo‘shiq”)

Eshqobil Shukur ba‘zan misradagi bir birlikka bir necha badiiy san‘atni shakllantirish vazifasini yuklaydi. Bu holat she‘rning ta‘sir kuchini oshiradi: *Menda Yer-u osmon, oy va quyosh bor edi, Tomchi kulgu, ko‘za ko‘z yosh bor edi, Yurak degan gultug‘ar tosh bor edi...* (“Qaldirg‘ochning ko‘z yoshlari”)

Bu o‘rinda dastlabki misrada *yer, osmon, oy, quyosh* leksemalari tanosub san‘atini, ayni vaqtda, o‘zaro zidlanib, tazod san‘atini ham hosil qilgan. Ikkinchi misrada *kulgu, ko‘z yosh* birliklari oppozitsiyasi natijasida tazod yuzaga kelgan.

Eshqobil Shukur she'rlarida takrir badiiy san'atiga ham keng o'rin berilgan. Uning she'rlarida leksik takror ko'p kuzatiladi. Shoir ko'p hollarda takroriy so'zni she'rning har bir misrasida takror qo'llagan, bu holat ta'kidni yanada oshirishga, she'rning ta'sirchan bo'lishiga xizmat qilgan. Masalan: *O'ylaysan yonib-yonib, Yonib-yonib o'tar kun. Yonib-yonib darichang – Sajdagohga kelar tun...* ("Sevgining bir kuni")

Shoir *yonib-yonib* so'zini keyingi misralar boshida ham takrorlar ekan, lirik qahramonning hissiy kechinmalarini bo'rttirib ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Bobning ushbu faslida Eshqobil Shukur she'rlarida leksik birliklarning tarse', talmih, tashbih, tashxis, irsoli masal san'atlarini hosil qilishdagi xususiyatlari ham yoritilgan. Xullas, shoir she'rlarida badiiy san'atlarni hosil qilishda leksik birliklaridan mahorat bilan foydalanib, o'ziga xos poetik manzara yarata olgan. Mazkur holat poetik nutqqa o'zgacha joziba bag'ishlagan, she'rlarning mazmunan va shaklan ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Eshqobil Shukur she'riyatida morfologik va sintaktik birliklar lingvopoetikasi**" deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi faslida shoir she'rlarida morfologik birliklar lingvopoetikasi yoritilgan.

Tildagi morfologik birliklar badiiy asarda yozuvchi maqsadlari bilan bog'liq holda lingvopoetik xususiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, har bir adibning asarida estetik ma'noni hosil qilishda morfologik vositalarga yondashuvi turlicha. Shu jihatdan hamda badiiy nutqda qo'llanuvchi morfologik birliklarning ko'lamini kengligini inobatga olib, Eshqobil Shukur she'rlarida badiiy-estetik ma'noni hosil qilishda muhim o'rin tutgan yuklamalar, ko'plik va kelishik ko'rsatkichlarining lingvopoetik xususiyatlarini yoritish maqsad qilib belgilandi.

Shoir she'rlarida ko'p hollarda *-da, -ya, -a, -ay* yuklamalariga estetik ma'no vazifasini yuklagan. U bu yuklamalarni she'r misralarida takror qo'llash orqali ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan. Masalan, "Chimildiq" she'rida *-da* yuklamasi *alqamoq, tinglamoq* fe'llariga birikib kelib, ta'kidni oshirishga xizmat qilgan:

Sochala sochingiz, sochala, Bizni ham alqang-da, chechalar... Sochala sochingiz, sochala, Bizni ham tinglang-da, chechalar... ("Chimildiq")

Shoirning quyidagi she'rida *-da* yuklamasi *alam qilmoq* fe'li tarkibida 4 marta takrorlanib, estetik qimmatga ega bo'lgan: *Alam qiladi-da, axir qorningda Xo'jalik yuritsa qorag'uloqlar...* ("Ko'krakda yo'lbarslar uyasi...").

Eshqobil Shukur she'rlarida juda ko'p o'rinda *-ya* yuklamasi takrorlangan. Uning "*Ko'nglimni toshga yordim...*" deb boshlanuvchi she'rida bu yuklama *sindi-ya, qo'ndi-ya, yondi-ya, tindi-ya, to'ldi-ya, qo'ndi-ya* so'zlarida 8 o'rinda takrorlanib, o'ziga xos ohangdoshlik hosil qilingan. Aytish mumkinki, ushbu yuklamani takror qo'llash va uning zimmasiga she'riy matnda ta'sirchanlik, ta'kidni hosil qilish vazifasini yuklash shoirning individual uslubiga xos jihatdir.

Ijodkor she'rlarida *-ay* yuklamasi orqali erkalash, suyish ma'nolari hosil qilingan. Natijada she'rda ta'sirchanlik, xalqona ohang yuzaga kelgan. Masalan: *Men seni boladay suysam, netayin, Ko'yingda bevaday kuysam, netayin, Suygunchigim mening, suygunchigim-ay...* ("Mening qo'shig'im")

Shoirning ayrim she'rlarida *-lar* ko'plik shakli orqali ma'no bo'rttirilgan. Masalan, uning "Muhabbat" deb nomlangan she'rida *sochlari, ko'zlarim* birliklari

tarkibidagi *-lar* affiksi ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish vazifasini bajargan.

She'riyatda kelishik affikslarining variantlari matnga o'ziga xos poetik ruh bag'ishlaydi. Kelishik affikslari variantlarining bu imkoniyatidan Eshqobil Shukur ham unumli foydalangan. Uning ayrim she'rlarida tushum, qaratqich kelishiklarining poetik variantlari ishlatilgan. Shoirning "Hayotga qasida" she'rida qo'llangan *qayg'u chimildig'in, oyning nikoh to'yin, bir aytgan qo'shig'in, shifokor qabulin, tabassum tovushin, yig'i ziyosin* birikmalarida egalik affikslaridan so'ng tushum kelishigining *-n* shaklda ishlatilishi natijasida she'rga estetik ruh bag'ishlangan, uning ohang jihatdan jozibadorligi oshirilgan. Uning quyidagi she'rida qaratqich kelishigining *-n* qisqargan shakli orqali ta'sirchanlik yuzaga kelgan: ***Yopinchiq'in gullari Yor yuziday sayqalli...*** ("Ko'pkari")

Xullas, Eshqobil Shukur she'rlarining badiiy-estetik qimmatini oshirishda morfologik birliklardan ham samarali foydalangan. Ayniqsa, yuklamalar shoir asarlari poetik salmog'ini yanada ko'tarishga xizmat qilgan.

Bobning ikkinchi fasli "**Shoir she'rlarida sintaktik takrorning lingvopoetik ahamiyati**" deb nomlangan. Eshqobil Shukur she'rlarida badiiy-estetik tasvirlar, poetik ifodalar sintaktik takrorlar orqali ham hosil qilingan. Uning she'rlaridagi so'z birikmalari takrori uchun quyidagi holatlar xarakterli:

1) misra tarkibida moslashuv munosabatidagi so'z birikmalari takrorlangan: *Ko'yingda bevaday kuysam, netayin, Suygunchigim mening* (4), *suygunchigim-ay...* (2) ("Mening qo'shig'im") Mazkur she'rda *suygunchigim mening* so'z birikmasi 4 marta takrorlangan. Xarakterli jihati, ushbu so'z birikmasi misra tarkibida murojaat birligi sifatida qo'llangan. Shoir murojaatini kuchaytirishda erkalash, suyish xarakteridagi *suygunchigim-ay* birligidan foydalangan. Ammo she'rning keyingi bandlarida uni *ovunchig'im-ay, suyanchig'im-ay, kuyunchagim-ay* birliklari bilan almashtirib, o'ziga xos ijobiy konnotatsiyani yuzaga keltirgan. She'rning faqat so'nggi bandida yana *suygunchigim-ay* birligini ishlatgan;

2) misra tarkibida bitishuv munosabatidagi so'z birikmalari takrorlangan: *Qanotidan qon tomchilab, Qushim ketdi, chinni qushim. Chinni qushim.* ("Vido") Berilgan she'rda *chinni qushim* so'z birikmasi 2 marta takrorlangan. Takror qo'llangan so'z birikmasi yangi misrani tashkil qilgan. She'rda misra tarkibidagi so'z birikmasining bu tarzda takrorlanishi, ayniqsa, alohida misrada qayta keltirilishi ta'kidni oshirgan, she'rda o'ynoqi ohangni yuzaga keltirgan. Shoirning quyidagi she'rida esa bitishuv munosabatidagi *yuz yil* birikmasining misra boshida 3 marta takrorlanishi natijasida zamon tushunchasi aktuallashtirgan: ***Yuz yilki, sen ma'yus... Tizzangda kashta, Yuz yilki, cho'milmas hurlar tushimga. Yuz yilki, har kuni yuz bor qaytaman Qayg'uli yigirma besh yoshimga...*** ("O'tdan-da, suvdan-da...");

3) misra tarkibida boshqaruv munosabatidagi so'z birikmalari takrorlangan. Masalan, shoirning quyidagi she'rida *meni yig'latma* birikmasi 3 marta takrorlanib, she'rning ta'sir kuchini oshirgan: *O, meni yig'latma... Yomon tushlar ko'rib, namozshomgulim, meni yig'latma...* ("O, meni...")

Eshqobil Shukur she'rlarida misralarni tashkil qilgan gaplar takrori uchun quyidagi holatlar xarakterli:

1) she'rd a misra tarkibidagi muayyan gap bir necha bor takrorlangan. Masalan: *Nelar bo'ldi, nelar bo'ldi, aytgin, yor, (2) Kinga omad, kinga kasod bu bozor..* ("Ot aylanib...") Shoirning mazkur she'rida misra tarkibida *Nelar bo'ldi* gapi 2 marta takrorlangan. Shoir ushbu gapni takror qo'llash orqali unda ifodalangan so'roqqa alohida urg'u bergan, so'roqqa javob berilishi talabini kuchaytirgan. So'roqning qat'iy ekanligi *aytgin* gapi orqali yana eslatilgan;

2) she'rd a muayyan gap alohida misralarni hosil qilib takrorlangan. Eshqobil Shukur she'rlarida misrani tashkil qilgan gaplarning takrori ko'p kuzatiladi. Quyidagi she'rd a bunday gap 4 marta takrorlangan. Masalan: *Daraxtim, men yana qoshingga keldim. Qaytmas kunlarimning xotiri uchun, Umrinning aytilmas bor siri uchun. Daraxtim, men yana qoshingga keldim...* ("Daraxtim...");

3) she'rd a misralarni tashkil qilgan turli gaplar bir necha bor takrorlangan. Masalan, shoirning "Hayotga qasida" she'rida *...lahzani ushlab qol, yashab o't lahzani...* jumlasini 9 marta takrorlangan. Xarakterli jihati, shoir ushbu jumlaning oxirida alohida misra sifatida qayta takrorlagan. Bu holat ushbu jumlada ifodalangan inson har bir lahzadan unumli foydalanishi, uni mazmunli o'tkazishi lozimligi haqidagi maslahat nutqiy akti naqadar ahamiyatli ekanligi, shoir o'z o'quvchilarini bu maslahatga amal qilishga chorlayotganligini anglatadi;

4) she'rd a ikkilik (bayt)ni tashkil qilgan turli gaplardan iborat misralar bir necha bor takrorlangan. Masalan, shoirning "Xalq ohangida" she'rida *"Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar, Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar"* bayti 3 marta takrorlangan. Natijada she'rd a xalq qo'shiqlarini yodga soluvchi o'ynoqi ohang yuzaga kelgan va hokazo.

Eshqobil Shukur she'rlarida takror qo'llangan gaplar sintaktik jihatdan ot kesimli, fe'l kesimli yig'iq va yoyiq gaplar bo'lib, ularga tadqiqotda misollar tahlili orqali tavsif berilgan. Xullas, shoirning sintaktik birliklar takroriga alohida e'tibor qaratishi bejiz emas. Sintaktik takrorga tez-tez murojaat qilish orqali shoir ularga ta'kid ma'nosini yuklagan va shu orqali she'rlari estetik salmog'ini oshirgan.

Bobning uchinchi fasli "**Eshqobil Shukur she'rlarida qo'llangan o'xshatishli qurilmalar lingvopoetikasi**" deb nomlangan. Badiiy adabiyotda o'xshatishlar muallifning obrazli tafakkuri imkoniyatlarini, uning narsa-predmetlar orasida qiyosga asos bo'luvchi belgini qay darajada his qilishini namoyish qiladi. Tilshunos olim N. Mahmudov ta'kidlaganidek, "... o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi"²⁸.

Eshqobil Shukur she'rlarida qo'llangan turg'un va muallifning individual o'xshatishlari poetik matnning badiiy-estetik qimmatini oshirgan, yaratilgan badiiy tasvirlarning haqqoniyligini ta'minlagan. Shu bilan birga, o'zbek shoiriga xos milliy dunyoqarash, his-tuyg'u, borliqqa bo'lgan munosabat, u haqidagi tasavvurlarni namoyon qila olgan. Ayniqsa, shoir o'xshatishlarida tanlangan

²⁸ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 5.

etalon-obrazlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zero, "...o'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyasining poetik qimmatini, estetik salmog'ini belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatishli qurilma shu darajada ohorli bo'ladi"²⁹.

Shoirning "Urush" nomli she'rida qo'llangan quyidagi o'xshatishli qurilmada undov belgilari askarlar tayangan qo'ltiqayoqqa o'xshatilgan: *Urush!!! (Baqirib yuborar undov belgilari, Askarlar tayangan qo'ltiqayoqday)*.

Bu o'rinda shoirning mahorati shunda ko'rinadiki, yozuvga oid tinish belgisi va muayyan predmet o'rtasidagi o'xshashlikni tasvirlash orqali kitobxon ko'z oldida urushning mudhish asoratlari haqidagi manzarani gavdalantira olgan. Shoir o'xshatish etaloni sifatida tanlagan *askarlar tayangan qo'ltiqayoqday* birikmasi orqali urushning ayanchli oqibatlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, *urush* so'zidan keyin qo'yilgan uchta undov belgisi vositasida kuchli subyektiv munosabatini ham ifodalagan. Ushbu belgilar urushga bo'lgan nafratni ham, uning mudhish asoratlari ham, yarador askarning iztiroblarini ham o'zida jamlagandek. Shoirning bunday obrazli va ta'sirchan tasvirni yaratishiga uning o'ziga xos individual o'xshatishni qo'llashi barobarida tinish belgilarini ham lingvopoetik maqsadiga bo'ysundirishi sabab bo'lgan deyish mumkin.

Mana shuni inobatga olgan holda tadqiqotda shoirning o'z she'rlarida o'xshatish etalonini tanlashi masalasi tahlil qilindi. Shoir tomonidan yaratilgan individual o'xshatishli qurilmalarda ayrim jonivorlar, qushlar, insonlarga xos xarakter-xususiyatlar, xatti-harakatlar, ularning ovozlari; narsa-predmetlarning belgilari, xossalari o'xshatish etaloni uchun asos qilib olinganligi kuzatiladi. Eshqobil Shukur she'rlarida tanlangan o'xshatish etaloni asosida uning o'xshatishlarini quyidagi turlarga ajratib o'rganish mumkin:

1. Kishilarga xos sifatlar, ularning xatti-harakati o'xshatish etaloni vazifasini bajargan o'xshatishli qurilmalar. Eshqobil Shukur she'rlarida ota shaxsiga xos muhim jihatlar o'xshatish etaloni vazifasini bajargan. Uning she'rlarida o'xshatish etaloni sifatida ota obrazi emas, otadek nasihat qilish motivi tanlanib, o'ziga xos o'xshatish hosil qilingan. Masalan, *Bolam, bir qo'shiq bor dunyoda, bolam, ilk bora otaday aytayin uni...* ("Alla ta'rifi") satrlarida allaning ota tomonidan aytilganligiga ishora qilingan. Aslida, o'zbek oilalarida bolaga alla qo'shig'ini onalar aytishadi. Ammo O'zbekistonning ba'zi joylarida allani chaqaloqqa otalar aytishi ham kuzatiladi³⁰, biroq bu keng tarqalmagan. She'rdagi allaning ota tomonidan aytilishida ramziy ma'no mavjud. Alla bu – otaning farzandiga mehr-muhabbatga to'la nasihati, u bolaga shu darajada kuch bag'ishlaydiki, bu qo'shiq otaday aytilsa, hatto jahonda buyuk shoirlarning dunyoga kelishiga ham turtki beradi.

Eshqobil Shukurning ayrim she'rlarida kishilar tomonidan amalga oshirilgan muayyan xatti-harakat o'xshatish etaloni vazifasini bajargan. Masalan, *boladay suysam, bevaday suysam* o'xshatishlarida bola va bevaning boshqalardan farqli tarzda "samimiy, chin yurakdan, mehr bilan suyishi" epizodi orqali lirik qahramon

²⁹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 75.

³⁰ Bu haqida qarang. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam'armasi, 2006. – B.7.

mehr-muhabbatining nihoyatda kuchli ekanligi bo‘rttirilgan.

Shoir o‘xshatishlarni hosil qilishda kishilarning jins xususiyati bilan bog‘liq xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlarini ham inobatga olgan: *Ne achchiq quyunlar o‘ynar ko‘zimda, Ayolday qarg‘ayman tasodiflarni...* (“Hamal ayvoni”)

Berilgan she‘riy parchada ayrim o‘zbek ayollariga xos qarg‘ashlar o‘xshatishli qurilmaning yaratilishiga asos bo‘lgan. Shoir *ayolday qarg‘amoq* o‘xshatishi orqali voqelikka o‘zining emotsional munosabatini ham bildirgan. Ma‘lumki, qarg‘ishlarda, xususan, ayol kishining qarg‘ishida shaxsning salbiy munosabati eng yuqori darajada ifodalanadi. Shu sababli ham lirik qahramon, erkak kishi, so‘kinmaydi, balki ayolday kuyunib qarg‘aydi. Mazkur she‘r tarkibidagi *ayolday qarg‘amoq* o‘xshatish qurilmasi lirik qahramonning kutilmagan, noxush tasodiflarga bo‘lgan munosabatini ekspressiv tarzda ifodalashi bilan lingvopoetik ahamiyat kasb etgan deyish mumkin.

2. Jonivorlar, qushlarning xatti-harakati, holati, ovozi o‘xshatish etaloni vazifasini bajargan o‘xshatishli qurilmalar. Eshqobil Shukur she‘rlarida hayvonlar, qushlar, hasharotlar bilan bog‘liq o‘xshatishlar ko‘p kuzatiladi. Masalan, quyidagi she‘riy parchada qayg‘uga tushgan ilonning vishillagan ovozi avralgan chumchuqning ayanchli chirqirashiga o‘xshatilgan: *Men g‘amli ilonman, qayg‘uli ilon, Avralgan chumchuqday chirqiraydirman.* (“Avralgan ilon”)

Aslida, ilonning vishillagan ovozi va chumchuqning chirqirashi o‘rtasida biror o‘xshashlik yo‘q. Ammo shoir ilonning “qayg‘uli, g‘amli” holatidagi vishillagan ovozi va chumchuqning jonholatda chirqirashi o‘rtasida o‘xshashlik – kuchli ruhiy azoblanishni ko‘ra olgan. Mana shu o‘xshashlikka asoslangan tasavvur asosida she‘riga *chumchuqday chirqiramoq* o‘xshatishli birikmasini olib kirgan. Ushbu o‘xshatishli qurilma poetik nutqda ko‘p uchraydi, uni muallifning individual o‘xshatishi deb bo‘lmaydi. Muhimi, shoir she‘rda mazkur o‘xshatishni ilon vishillashiga nisbatan qo‘llab, o‘ziga xos badiiy-estetik tasvir yarata olgan.

Eshqobil Shukur “O‘tov” she‘rida ham tovush o‘xshashligiga asoslangan o‘xshatish hosil qilgan. Ammo bunda jonivor ovozi va predmet orqali chiqadigan tovush o‘rtasidagi o‘xshashlikni inobatga olgan: *Oyoq tirab o‘choq bo‘yniga Qurbaqaday biqirlar qumg‘on...* (“O‘tov”)

Ushbu she‘rda qumg‘onning biqirlab qaynashi vaqtida chiqadigan tovush qurbaqaning vaqillashi ovozigacha o‘xshatilgan. Bunday o‘xshatish o‘ziga xos, muallifning individual o‘xshatishi hisoblanadi. Garchi badiiy adabiyotda hamda so‘zlashuv nutqida *qurbaqaday sayramoq, qurbaqaday vaqillamoq, qurbaqadek qurullamoq* o‘xshatishli qurilmalari tez-tez uchrasa-da, she‘rda ushbu o‘xshatishning *qurbaqaday biqirlamoq* varianti hosil qilingan. Bu kabi o‘xshatishlar shoirning mahoratini? lisoniy qobiliyatini namoyon qiladi.

Shoir she‘rlarida jonivorlarning xatti-harakati bilan bog‘liq o‘xshatishli qurilmalar ko‘p uchraydi. Uning ayrim she‘rlaridagi o‘xshatishlarda *tulporning oyoqlarini kerishi, ona yo‘lbarsning bolasini tishlashi, itning to‘rt oyoqlab yurishi, toshbaqaning sudralishi* kabilar o‘xshatish etaloni vazifasini bajargan.

3. O‘simliklarning holati o‘xshatish etaloni vazifasini bajargan o‘xshatishli qurilmalar. Shoir she‘rlarida o‘simliklar bilan bog‘liq holda ham o‘xshatishlar hosil qilingan. Jumladan, daraxtning ko‘karishi, gulning sarg‘ayish

holati o'xshatish uchun etalon vazifasini bajargan. Masalan: *Shayxning xazon kuni bahorlar keldi, Falak yashil bayroq tusiga kirdi. Ko'k yuzini tutdi soyasiz Nihoyasiz yashil qushlar, nihoyasiz... O, shayxning tobuti go'riston qadar Daraxtday ko'karib ulgurdi...* ("Yashil o'lim")

Ushbu she'riy parchada A. Navoiyning "Nasoyim ul- muhabbat" asarida Shayx Zunnun Misriyning janozasi kuni osmonni yashil qushlar qoplagani haqida yozilgan. Yashil rang islomiy ruh rangidir. Bu she'rda *Shayxning yog'och tobuti go'ristonga borguncha daraxtday ko'karib ulgurdi* deyilishi abadiyatga, ruhoniylashtirilishga ishora. Chunki yog'och ham asli o'lgan daraxt, yog'och tobut ichidagi tan ham o'lgan, qarangki, qurigan yog'och ham, o'lgan tan ham tirilib, ko'karmoqda, ya'ni o'lim emas, balki yangi hayot boshlanmoqda.

Tadqiqotda o'xshatish etaloni vazifasida narsa-predmetlarning belgi-xususiyati, harakat-holati; daryo, dengiz, ko'l, buloq, soyga xos xususiyatlar kelgan o'xshatishli qurilmalar ham tahlilga tortilgan. Shuningdek, o'xshatish etaloni vazifasidagi birliklar struktur jihatdan turlarga ajratilib, tahlil qilingan.

Bobning to'rtinchi fasli "**Ijodkor she'rlarida pretsedent birliklar lingvopoetikasi**" deb nomlangan. Shoir she'rlarida mashhur obrazlar nomlari, jumlar, matnlar allyuziya ko'rsatkichi vazifasini bajarib, allyuziv matnni yuzaga keltiruvchi lingvopoetik vosita maqomida kelgan. Masalan, uning "Sehr" she'rida tilla baliqcha pretsedent birligining lingvopoetik jihatdan aktuallashtirilganini kuzatish mumkin: *Dengizlar ko'karib tortadi chilim, Baxmal bulutlarni kiyayotgan sen. Oltin baliqchaga aylandi tilim, Eshqobil emasman endi men.*

Ma'lumki, oltin baliqcha rus shoiri A.S.Pushkinning "Baliqchi va baliq haqidagi ertak" asari qahramoni bo'lib, o'zbek kitobxonlariga ham yaxshi tanish. Shuningdek, o'zbek xalqida ham "Oltin baliq" ertagi mavjud. She'rda mana shu asarlar qahramoniga ishora qilinib, badiiy-estetik tasvir hosil qilingan.

Shoir she'rlarida rivoyatlar mazmuniga ishora qilingan holatlar ham mavjud. Uning quyidagi misralarida N.Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi mashhur "Sulaymon va qarinchqa" rivoyatidagi *chumoli* (qarinchqa) va *Sulaymon* obrazlariga ishora qilingan, natijada lirik qahramonning o'zini ishq ko'yida ba'zan chumolidek ojiz, ba'zan Sulaymon kabi qudratli his etganligi kabi holatlarning aniq ifodalanishiga erishilgan: *Nechuk sensiz o'tdi umr... hayronmen, Gahi chumolimen, gah Sulaymonmen...* ("Ishq va talab qayg'usi")

Eshqobil Shukur she'rlarida so'z birikmasi va gap shaklidagi pretsedent birliklar quyidagi tartibda berilgan:

1. She'riy matnga pretsedent birliklar aynan kiritilgan. Shoir she'rlarida maqol, shoir kabi matnlarni o'z shaklida, semantik va sintaktik strukturasi o'zgartirmay, aynan kiritgan. Masalan, shoir mashhur "*Dil ba yor-u, dast ba kor*" ("Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin") shiorini aynan qo'llab, o'ziga xos tasviriylikka erishgan: "*Dil ba yor-u, dast ba kor*" *BU SO'ZNI – Bu quyma oltinni olmak istadim...* ("Naqshband")

2. She'riy matnda pretsedent birliklar ayrim shakliy o'zgarishlar bilan berilgan. Shoir quyidagi she'rida "*Ot aylanib qozig'ini topadi*" o'zbek xalq maqolidan foydalanib, o'ziga xos badiiy tasvirni yuzaga keltirgan. She'rda maqolning kesimi qofiya talabiga moslashtirilib, sifatdosh shaklida qo'llangan:

Ot aylanib qozig'ini topganda, Zot aylanib tuzlig'ini topganda, El aylanib o'zligini topganda, Sen aylanib qayerlarga ketding, yor... (“Hamal ayvoni”)

Ushbu she'rning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, shoir maqol tarkibida qo'llangan *aylanib, topganda* birliklarini keyingi uch misrada ham takror qo'llash orqali she'rda musiqiy ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

3. Shoir pretsedent birliklarning mazmunini saqlab qolib, uni qaytadan shakllantirgan. Shoir she'rlarida ba'zan maqollarning mazmuni saqlanib qolingan holda she'riy matnga moslashtirilganligi kuzatiladi. Masalan: *O'rta yosh: Yoshin yashab, oshin oshadi, lekin, Pari bilmaganni bilguvchi edi...* (“Qariyaning o'limi...”) Ushbu she'rdagi “*Pari bilmaganni bilguvchi edi*” misrasi o'zbek xalqining mashhur “*Qari bilganni pari bilmas*” maqolining sintaktik jihatdan o'zgartirilgan, ya'ni shoir tomonidan individuallashtirilgan ko'rinishidir.

Shoir ba'zi she'rlarida xalq qo'shiqlarining mashhur naqarot qismini keltirish orqali she'rlariga musiqiy ohang olib kirgan: *Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay! Men qushlarning tushlarida ko'rinay...* (“Ruhim”)

Xullas, Eshqobil Shukur o'z she'rlari tarkibiga Qur'on oyatlari, hadislar, xalq qo'shiqlari, maqollar, turg'un o'xshatishlarni olib kirib, ixcham shakl orqali teran mazmunni ifodalovchi badiiy matnlarni yaratishga erisha olgan.

XULOSA

1. Lingvopoetikada asosiy e'tibor poetik matnda badiiylikning tub mohiyati, uning verballashuvi qonuniyatlarini aniqlashga qaratilishi bilan birga muayyan adibning lisoniy qobiliyati, so'zdan foydalanish mahoratiga ham baho beriladi. O'zbek tilshunosligida bugungi kunda badiiy matnni lingvopoetik aspektda tadqiq qilish metodologiyasi va metodlari, tahlil tamoyillari belgilab berilgan, ayrim adiblar asarlari misolida til birliklarining poetik xoslanishi, badiiy-estetik ma'noni hosil qilishdagi ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.

2. Eshqobil Shukur o'tgan asrning 80-yillarida xalqona uslubda ijod qiluvchi shoir sifatida o'zbek adabiyotiga kirib keldi. U she'rlarida milliy-madaniy xazinamizning bir qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol, matal, tasviriy ifoda, iboralar, o'zbek xalq ertaklari, rivoyatlar, topishmoqlarga murojaat qilib, she'rlarida nafaqat go'zal obrazlar yaratishga, balki ularning ta'sirchanligini oshirishga ham muvaffaq bo'lgan. Shoirning xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan samimiy muhabbati bevosita she'rlariga ko'chgan.

3. Shoir she'rlarida ko'pincha so'zlarning xalq orasida ishlatiladigan variantlarini qo'llagan. Uning so'zga bo'lgan munosabati etimologik kuzatishlarida ham namoyon bo'lgan. Shoir “Boboso'z izidan. So'zlar bilan so'zlashuv” kitobida so'zlar etimologiyasini aniqlashda xalq og'zaki ijodi materiallari hamda o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlariga suyangan holda xulosalar chiqargan.

4. Eshqobil Shukur she'rlarida so'zdagi unli va undosh tovushlarning fonetik uyg'unligiga alohida e'tibor qaratgan. U so'z tarkibidagi unli, undoshni ikkilantirish, unlini cho'ziq holatda ifoda etish, ayni bir undosh va unli tovushni takror qo'llash orqali poetik konnotatsiyani hosil qilgan. Ayrim holatlarda so'z

tarkibidagi tovushlar o'rnini almashtirish, so'zning fonetik jihatdan o'zgarishga uchragan shakllarini qo'llash orqali she'rlarining ta'sirchanligini oshirgan.

5. Ijodkor she'rlarida poetik vazifa bajarigan leksik birliklarning turi va ko'lami keng. U leksik birliklarga ba'zan yangi ma'no yuklagan, ba'zida ularning ma'nosini to'ldirgan yoki ular orqali baho munosabatini bildirgan. Bunday birliklar poetik matnda tasvirni yanada teranlashtirishga, unga badiiy-estetik bo'yoq berishga xizmat qilgan. Shoir she'rlarida badiiy obraz hamda tasviriylikni hosil qilishda metafora, metonimiya, sinekdoxa usullaridan unumli foydalangan.

6. Shoir she'rlarida qo'llangan mashhur shaxslar ismlari, taxalluslarning ayrimlari, okkazonal ism va laqablar matnda poetik vazifa bajarib, badiiy-estetik mazmuni ta'minlasa, ba'zilari nominativ vazifani namoyon qilish bilan cheklangan. Ijodkor she'rlarida ba'zan o'ziga murojaat qilgan, ba'zida lirik qahramon sifatida o'ziga tavsif bergan. Ayrim she'rlarida *Eshqobil* ismini ishlatgan, ba'zida *Eshqobil Shukur* taxallusini qo'llab, she'rlarida ta'sirchanlikni oshirgan.

7. *Eshqobil Shukur* she'rlarida leksik birliklarning tazod, takrir, tajnis, talmih, tanosub, tarse', tashbih, tashxis, irsoli masal kabi she'riy san'atlarni hosil qilishda qo'llanishi ko'p kuzatiladi. Shoir leksik birliklarga bunday vazifa yuklash orqali she'rlari poetik qimmatini oshirgan.

8. Poetik matnda lingvopoetik maqsadda qo'llangan har bir morfologik birlik badiiy-estetik vazifa bajaradi. *Eshqobil Shukur* she'rlarida morfologik birliklarning badiiy-estetik vazifasi, ayniqsa, *-da*, *-ya*, *-a*, *-ay* ta'kid-kuchaytiruv yuklamalarida yorqin namoyon bo'lgan. Shoir yuklamalarni takror qo'llash orqali she'rlarida ta'sirchanlikni yuzaga keltirgan; *-lar* ko'plik affiksi, kelishik affikslari variantlari yordamida badiiy matnga o'ziga xos estetik ruh bag'ishlagan.

9. *Eshqobil Shukur* she'rlarida go'zal badiiy tasvirlar sintaktik takrorlar orqali ham hosil qilingan. Uning she'rlarida moslashuv, bitishuv, boshqaruv munosabatidagi so'z birikmalarining takrori ko'p uchraydi. Yoki misralarni tashkil qilgan gaplar she'rda bir necha bor takrorlangan; muayyan gap alohida misralarni hosil qilib takror keltirilgan; turli gaplar bir necha bor takrorlangan; she'rda baytni tashkil qilgan turli gaplar takrorlangan; she'rda misrani tashkil qilgan gaplarning muayyan qismi keyingi misralar tarkibida qaytalangan.

10. Shoir o'xshatishlar orqali obrazli ifodalarni hosil qilib, she'rlarining badiiy-estetik qimmatini oshirgan. Uning she'rlarida o'xshatish etaloni uchun kishilarga xos sifatlar, ularning xatti-harakati; jonivorlar, qushlarning holati, ovozi; o'simliklarning holati; narsa-predmetlarning belgi-xususiyati, harakat-holati; daryo, dengiz, ko'l, buloq, soyga xos xususiyatlar tanlangan.

11. *Eshqobil Shukur* she'rlarida til egalari xotirasidan o'rin olgan mashhur jumlar, matnlar pretsedent birlik vazifasini bajarib, badiiy-estetik qimmatga ega bo'lgan. Shoir Qur'oni karim suralari oyatlari, hadislardan ilhomlanib, go'zal she'rlar yaratgan. Buyuk allomalar asarlarida qo'llangan hamda pretsedent birlikka aylangan so'z birikmalaridan foydalangan. Uning she'rlarida pretsedent birliklar aynan; ayrim shakliy o'zgarishlar bilan; shuningdek, mazmuni saqlab qolinib, qaytadan shakllantirilgan holda qo'llanishi kuzatiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА,
ЛИТЕРАТУРЫ И ФОЛЬКЛОРА**

УНИВЕРСИТЕТ ORIENTAL

ЭРКИНОВА НИГОРА ЭСАНОВНА

**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СТИХОВ
ЭШКАБИЛА ШУКУРА**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером №B2023.1.PhD/Fil3117

Диссертация выполнена в университете Oriental.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Института узбекского языка, литературы и фольклора (www.tai.uz) и на Информационно-образовательном портале "Ziynet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Худайбергана Дурдона Сидиковна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Юлдашев Маъруфжон Мухаммаджонович
доктор филологических наук, профессор

Анданиязова Дилрабо Рузикуловна
доктор философии по филологическим наукам

Ведущая организация: Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится "17" май 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc 02/30.12.2019.Fil.46.03 по присуждению учёных степеней при Институте узбекского языка, литературы и фольклора (адрес: 100060, город Ташкент, Шахрисабзский проезд, дом 5. Тел: (871) 233-36-50, факс: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Фундаментальной библиотеке Академии наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за номером _____) Адрес: 700100, город Ташкент, улица Зиёлилар, 13. Тел: (99871) 262-74-58.

Автореферат диссертации разослан "2" май 2024 года.
(протокол реестра № 7 от "2" май 2024 года).



Н.М. Махмудов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Г.М. Исmoilов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, доцент

Ё.Р. Одилов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD по филологическим наукам))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике с конца прошлого века кардинально изменились подходы к исследованию языка, особое внимание стало уделяться изучению языковой системы в связи с такими внешними факторами, как контекст, речевая ситуация, языковая среда, культура, этнос, социальная ситуация. В результате исследований, проводимых в этом направлении в последние годы, сформировался и стал развиваться самостоятельно ряд направлений антропоцентрической лингвистики, изучающих проблему человеческого фактора в языке. В частности, в результате усиления интеграции наук и научных областей возник ряд направлений, таких как лингвокультурология, когнитивная лингвистика, лингвопоэтика, этнолингвистика, социолингвистика, еще больше расширились объекты анализа языкознания, а количество актуальных проблем, требующих исследования, возросло.

Лингвопоэтика является одной из областей, возникших в результате интеграции подобных областей науки в мировом языкознании, в частности, на стыке литературоведения и языкознания, и определение особенностей языковых единиц, служащих художественно-эстетической задаче в связи с коммуникативной целью писателя или поэта, становится одной из важных задач современного языкознания. Хотя в этом направлении проведен ряд исследований, в нашем языкознании еще имеются нерешенные проблемы. В частности, к числу проблем, ожидающих практического решения, относятся выявление языковых единиц, создавших впечатлительность в стихотворениях известного узбекского поэта Эшкабила Шукура, выявление специфических закономерностей языка, стоящих за эстетической задачей, и тем самым выявление мастерства поэта в использовании языка. Исследование этой проблемы имеет большое значение для определения особенностей языковых единиц в ассоциативном мышлении творческой личности, его представлениях о мире и его художественном отражении в языке.

Широкомасштабные реформы, проводимые в развитии науки в нашей стране после обретения независимости, в том числе изданное нашим правительством постановления и указы о вопросе углубленного изучения узбекского языка на научной основе, радикально изменил отношение к исследованию языка в узбекском языкознании. В целях обеспечения выполнения этих указов и постановлений в нашем языкознании созданы современные методы и принципы исследования языка. “Узбекистан должен быть глобально конкурентоспособным в области науки и интеллектуального потенциала”¹, а глубокое изучение нашего национального языка на основе принципов современных исследований, популяризируемых в мире, считается одной из актуальных задач. Сегодня исследование лексики произведений узбекских соиздателей, послуживших повышению духовного потенциала

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22- декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2017 йил 23- декабрь. 258 (6952)-сон.

нашего народа, становится необходимостью времени. В этой связи язык лирики известного узбекского поэта Эшкабила Шукура также заслуживает серьёзного изучения, поскольку в нём проявляются лингвопоэтические особенности узбекского языка. В своём творчестве поэт освещает узбекскую национальную духовность через возможности и особенности нашего родного языка. Данная ситуация обосновывает актуальность и соответствие предмета нашего исследования требованиям настоящего времени.

Диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указе №УП-4947 от 7 февраля 2017 года Президента Республики Узбекистан “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”, в Указе №УП-4958 от 16 февраля 2017 г. “О дальнейшем совершенствовании послевузовского образования”, в Постановлении № ПП-2909 от 20 апреля 2017 г. “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 мая 2017 года № 304 “О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования” и в действующих нормативно правовых документах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологии республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике выполнен ряд работ в лингвопоэтическом аспекте. Теоретические основы этой области, принципы анализа разрабатывались в работах В.В.Виноградова, Б.А.Ларина, В.П.Григорьева, Н.М.Шанского, М.Е.Конурбаева и других на примере текстов разной направленности².

С 80-х годов XX века в качестве продолжения работ лингвостилистического направления в узбекском языкознании появляются исследовательские работы, направленные на изучение лингвопоэтических особенностей языковых единиц. В узбекском языкознании теоретические вопросы лингвопоэтики впервые были подняты в статьях Н.Махмудова³. Позже в работах таких учёных как И.Мирзаев, Б.Юлдашев, З.Шодиева, Г.Мухаммаджонова, М.Якуббекова, Д.Шадиева, М.Юлдашев, Г.Джума-

² Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1969. – 256 с.; Shu muallif. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981. – 320 с.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – 288 с.; Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979. – 343 с.; Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985. – 221 с.; Кожин И., и др. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985. – 221 с.; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Л.: Просвещение, 1990, – 425 с.; Конурбаев М.Э. Библия Короля Иакова в лингвопоэтическом освещении. – М.: Диалог – МГУ, 1998. – 69 с.; va boshqalar.

³ Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – №6. – Б. 48-51; Shu muallif. А.Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – Б. 34-36.

назарова, Ш.Тошходжаева, С.Умирова, А.Хамидов, З.Мукимова и другие выявлены лингвопоэтические особенности прозаических и поэтических произведений, народных песен и эпосов ряда узбекских писателей⁴. Также, во многих исследованиях, посвященных анализу художественных текстов, затрагивался и вопрос лингвопоэтических особенностей языковых единиц⁵.

В литературоведении были высказаны ценные мнения о литературном творчестве узбекского поэта Эшкabila Шукура и содержания его произведений. В последние годы в узбекском языкознании творчество поэта изучается с лингвистической точки зрения. В частности, проведено исследование И.Эрназаровой по вопросу лингвокогнитивного анализа словотворчества в произведениях Эшкabila Шукура⁶.

